



ADVOKATLAR INTIZOMIY JAVOBGARLIGI TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

Haydarova Munisa Abror qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
“Advokatlik faoliyati” yo‘nalishi magistranti
haydarovamunisa76@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20537002>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil
Ma‘qullandi: 28-may 2026 yil
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

KEYWORDS

advokat, intizomiy javobgarlik,
kasb etikasi, advokatura,
malaka komissiyasi, advokatlik
siri, yuridik javobgarlik..

ABSTRACT

Mazkur maqola advokatlarning intizomiy javobgarligi institutini uning tarixiy rivojlanishi, huquqiy tabiati va amaliy ahamiyati nuqtai nazaridan kompleks tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada intizomiy javobgarlikning umumiy huquqiy ta‘rifi ochib berilgan va u yuridik adabiyotlardagi turli yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Xususan, rossiyalik olimlar M.A.Jenina, Ye.O.Busurina va V.V.Zaborovskiy hamda O‘zbekistonlik tadqiqotchilarning ta‘riflari qiyosiy tarzda ko‘rib chiqilgan. Maqolada advokatlarning intizomiy javobgarligi jinoiy, fuqarolik va ma‘muriy javobgarlikdan farqlovchi belgilari aniqlangan, uning profilaktik, himoya, tarbiyaviy va tiklash funksiyalari tavsiflab berilgan. O‘zbekiston Respublikasida ushbu institutning qonunchilik asoslari — Konstitutsiya, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun hamda malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizomlar — tahlil qilingan. Xorijiy davlatlar (AQSh, Estoniya, Rossiya) tajribasi ham tadqiq etilgan. Maqola advokatlik intizomiy javobgarligining fuqarolar manfaatini himoya qilish, kasb etikasini saqlash va huquq tizimi adolatliligini ta‘minlashdagi muhim o‘rni haqidagi xulosalar bilan yakunlanadi.

Huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida advokatlik instituti alohida o‘rin tutadi. Advokat — bu shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi, davlat va fuqaro o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlovchi kasbiy vakil sifatida nafaqat moddiy, balki ma‘naviy va axloqiy mas‘uliyat yuki ostida faoliyat olib boradi. Ana shu mas‘uliyatning huquqiy ifodasi — advokatning intizomiy javobgarligi institutidir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng advokatura sohasida tub islohotlar amalga oshirildi: 1996-yilda “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi, keyinchalik uni takomillashtirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Biroq advokatlarning intizomiy javobgarligi institutini nazariy asoslash va takomillashtirish masalasi hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, intizomiy javobgarlikning

tushunchasi, huquqiy tabiati, uni boshqa javobgarlik turlaridan farqlovchi belgilari va amaliy mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Ushbu maqola mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida yozilgan. Maqolada advokatlarning intizomiy javobgarligi tushunchasiga turli yondashuvlar qiyosiy-huquqiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Xorijiy davlatlar — xususan, AQSh, Estoniya, Rossiya Federatsiyasi — tajribasi O'zbekiston qonunchiligi bilan solishtiriladi. Intizomiy javobgarlikning funksiyalari va ahamiyati jamiyat, davlat hamda advokatlik hamjamiyati manfaatlarini kesimida ochib beriladi.

Maqolada tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan. Manba sifatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, rossiyalik va xorijiy huquqshunoslarning ilmiy ishlari, xalqaro advokatlik tashkilotlarining hujjatlari va milliy tadqiqotlar asos qilib olingan.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u O'zbekiston sharoitida advokatlarning intizomiy javobgarligi tushunchasini aniqlashtirish va ushbu institutning nazariy asoslarini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Amaliy ahamiyati esa malaka komissiyalari faoliyatini, advokatlik etikasi qoidalarini va tegishli qonunchilikni takomillashtirish uchun takliflar asosida ko'zda tutilgan.

Jamiyat rivojlanib borgani sari tabiiy ravishda huquqiy munosabatlarning murakkablashadi, fuqarolarning huquqiy ongi o'sib boradi. Davlat va fuqarolar o'rtasida muvozanatlashgan tizim yaratish advokatlik institutining rivojlanishi uchun zarur muhit yaratadi. Bunday muhitda advokatlarning kasbiy faoliyati ustidan nazorat va javobgarlik mexanizmi ham tobora chigallashadi. Advokatning intizomiy javobgarligi masalasi esa ushbu mexanizmga eng asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Advokatlarning intizomiy javobgarligining huquqiy tabiatini to'liq anglash uchun bu institutning tarixiy rivojlanish yo'lini ko'rib chiqish zarur. Huquq tarixida advokatlarning intizomiy masalasi juda qadimdan mavjud bo'lib, Rimda dastlabki intizomiy normalar "Lex Cincia" (miloddan avvalgi 204-yilda) orqali joriy etilgan edi. O'rta asrlarda Yevropa universitetlarida huquq fakultetlari tashkil topishi bilan birga huquqshunoslarga nisbatan maxsus kasbiy talablar paydo bo'la boshladi.

Rossiya imperiyasida 1864-yil Sudlar islohoti bilan qabul qilingan "Учреждение судебных установлений" (Sud muassasalari to'g'risidagi Nizom)ning 368-moddasida advokatlarning (присяжный поверенный) uchun keng intizomiy javobgarlik tizimi joriy etilgan edi. Prisyajniy povereniylar Kengashi advokatlarning qoidabuzarliklari uchun quyidagi jazolarni qo'llash vakolatiga ega edi: ogohlantirish; eslatma; bir yilgacha faoliyatni taqiqlash; prisyajniy povereniylar ro'yxatidan chiqarish; eng og'ir hollarda jinoyat sudiga topshirish¹. Ushbu tarixiy tajriba zamonaviy intizomiy tizimlar uchun muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston hududida advokatlik kasbining tarixi ham ancha qadimga borib taqaladi. O'rta Osiyoning xalqaro savdo yo'llarida huquqiy masalalarni hal etuvchi vakillar, xon saroylarida tarafdorlar himoyasini oluvchi bilimdon kishilar faoliyat yuritgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Sovet davrida esa advokatura siyosiy nazorat ostida bo'lsa-da, intizomiy tartib-qoidalar saqlab qolindi. Mustaqillikdan keyin esa advokatura sohasidagi milliy qonunchilik yangi asosda shakllandi.

¹ Учреждение судебных установлений 1864 г., ст. 368. - URL: <http://constitution.garant.ru/history/act1600-1918/3450/>

Turli yuridik adabiyotlarda advokatlarning intizomiy javobgarligi tushunchasiga turlicha ta'rif keltirilgan. Advokatning intizomiy javobgarligi tushunchasiga to'xtalishdan avval "intizomiy javobgarlik" haqida umumiy tushuncha hosil qilsak, fikrimizcha, maqsadga muvofiq bo'ladi. **A.A. Levchenko** va **S.V. Kalinin** fikriga ko'ra: "Intizomiy javobgarlik — bu vakolatli mansabdor shaxs tomonidan intizomiy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan majburluv shakllaridan biridir"². Mustaqil izlanuvchi Sunnatilla Avliyoqulov esa o'z maqolasida intizomiy javobgarlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltiradi: "Intizomiy javobgarlik — bu huquq subyekti o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda unga nisbatan qonunda nazarda tutilgan intizomiy choralar qo'llaniladigan yuridik javobgarlik turidir"³. Yuqorida keltirganlarimizda intizomiy javobgarlikning umumiy ta'rifi keltirilgan. Advokatlarning intizomiy javobgarligi ham bayon qilganlarimizdan ko'p ham farq qilmaydi. Yuridik adabiyotlarda advokatning intizomiy javobgarligi tushunchasiga turli ta'riflar berilgan. Rossiyalik olim M.A.Jenina ushbu tushunchani ikki tomonlama ochib beradi: *pozitiv javobgarlik* (advokatlarga xos burch tuyg'usi va o'z vazifalarini vijdonan bajarishga intilish) va *retrospektiv javobgarlik* (kasbiy majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun o'ziga xos protsessual tartibda ta'sir choralari qo'llash).⁴ Jenining fikrini batafsilroq bayon qiladigan bo'lsak, advokatlarning o'z burchlariga vijdonan yondashmasligi, ishonch bildiruvchi shaxsning ishonchini oqlay olmasligi, ishlarda nomigagina ishtirok etishini pozitiv javobgarlik deb baholashimiz mumkin. Retrospektiv javobgarlik deyilganda esa advokatning kasb-etika qoidalarida belgilangan tartiblarni mensimasdan yoki ularga amal qilmagan holda faoliyat ko'rsatishi tushuniladi. Masalan, advokatning advokatlik sirini saqlamasdan uni boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilishi retrospektiv javobgarlik hisoblansa, advokatning o'z kasbiy majburiyatini har qanday sharoitida, halol, mas'uliyat bilan va adolatni ko'zlab olib borishi pozitiv javobgarligi hisoblanadi.

Rossiyalik yana bir huquqshunos olimi Ye.O.Busurina advokatning intizomiy javobgarligiga quyidagicha ta'rif beradi: "Advokatning intizomiy javobgarligi – bu advokatura sohasidagi huquqiy munosabatlarning maxsus subyektiga nisbatan qo'llaniladigan yuridik javobgarlikning alohida turi bo'lib, intizomiy qilmish sodir etganligi uchun, ya'ni kasbiy majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qonun yoki korporativ etika normalari bilan belgilangan protsessual tartibda ta'sir choralari qo'llashni ifodalaydi"⁵.

Shuningdek, ayrim xorijiy davlatlarning advokaturaga oid hujjatlarida intizomiy javobgarlik tushunchasiga alohida ta'rif berilgan. Estoniya parlamenti (Riigikogu) tomonidan 2001-yilning 21-martida qabul qilingan, ushbu mamlakatda advokatlik instituti uchun eng

² A.A. Levchenko, and S.V. Kalinin. "ZARUBEJNIY OPIT PODGOTOVKI SOTRUDNIKOV POLITSI K OBESPEChENIYu LIChNOY BEZOPASNOSTI PRI VIPOLNENII SLUJEBNIX ZADACH"Mir nauki, kulturi, obrazovaniya, no. 1 (86), 2021, pp. 62-63. doi:10.24412/1991-5497-2021-186-62-63.

³ Sunatilla X. Avliyoqulov. "Disciplinary liability of employees of the internal affairs bodies in the Republic of Uzbekistan"/Article. Legal World. <http://huquqiyolam.akadmvd.uz/index.php/journal/index>

⁴ Jenina M.A. Advokatning intizomiy javobgarligining nazariy va amaliy muammolari // Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya referati. – Moskva, 2009. – 9-b.

⁵ Бусурина, Е. О. (2013). *Дисциплинарная ответственность адвоката в правозащитной деятельности* [Диссертация канд. юрид. наук]. Москва.

muhim hujjat hisoblangan **“Bar Association Act”** (Advokatlar palatasi to‘g‘risida”gi Qonun)ning 19-moddasida intizomiy huquqbuzarlik tushunchasi quyidagicha tavsiflanadi: “Advokat tomonidan Palata organlarining qarorlari yoki namunaviy kasbiy amaliyotning buzilishi yoxud ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan intizomiy huquqbuzarlikning sodir etilishi advokatning intizomiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi”. Amerika Qo‘shma Shtatlari advokatura sohasida eng yuqori hisoblanuvchi (American Bar Association) organining **“Model Rules for Lawyer Disciplinary Enforcement”** hujjatida intizomiy ish yuritish xususida to‘xtalinadi. Unga ko‘ra: “Intizomiy ishlar fuqaroviy ham, jinoyat ishi ham emas; u ishlarning o‘ziga xos turidir”⁶ deya keltiriladi. Mazkur ta‘rif, fikrimizcha, intizomiy javobgarlik haqida bildirilgan eng aniq va lo‘ndasi sanaladi, anglash mumkinki, intizomiy ish bu fuqarolik ishiga ham, jinoyat ishiga ham aloqador bo‘lmagan, ishlarning boshqa bir o‘ziga xos turi. Ushbu o‘rinda rossiyalik huquqshunos olim Zaborovskiyning fikriga yuzlanadigan bo‘lsak, uning ta‘biricha: “Advokat fuqaroviy-huquqiy (mulkiy), jinoiy-huquqiy, ma‘muriy-huquqiy va intizomiy javobgarlik subyekti bo‘lishi mumkin; biroq intizomiy javobgarlik advokatura institutining o‘ziga xos qonunchilik va korporativ etika normalari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli maxsus e‘tiborga loyiqdir”⁷. Zaborovskiyning fikri juda keng ilmiy-huquqiy asosli va mushohadaga boy, negaki advokatning shaxs sifatida fuqaroviy-huquqiy, jinoiy-huquqiy va ma‘muriy-huquqiy munosabat subyekti bo‘lishi mumkin. Advokatning intizomiy javobgarligi esa advokatura institutining o‘ziga xos jihatlaridan biri. Ushbu qoida advokatning huquqiy maqomi ko‘p qatlamli tabiatga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi va har bir javobgarlik turining mustaqil huquqiy asosga va o‘ziga xos tartibga ega ekanligini ta‘kidlaydi. Fuqarolik (mulkiy) javobgarlik advokatning mijoziga zarar yetkazganligi munosabati bilan yuzaga keladi. Uning asosini yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma yoki huquqiy normalardan kelib chiqadigan majburiyatlar tashkil etadi. Zararni qoplash talabi fuqarolik sudi tomonidan ko‘riladi va advokatning mulkiga nisbatan majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin. Jinoiy-huquqiy javobgarlik esa advokat tomonidan jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qilmishlar — sudni aldash, poraxo‘rlik, sirni oshkor qilish kabilar — sodir etilgan taqdirda vujudga keladi va umumiy jinoiy-protsessual tartibda ko‘rib chiqiladi. Ma‘muriy-huquqiy javobgarlik soliq qonunchiligini, ro‘yxatdan o‘tish tartibini va boshqa davlat tomonidan belgilangan normalarni buzganlik uchun qo‘llaniladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan javobgarlik turlaridan farqli o‘laroq, intizomiy javobgarlik o‘zining ikkita tayanch — qonunchilik va kasb etika qoidalari — bilan boshqarilishi tufayli alohida o‘rin egallaydi. Zaborovskiy aynan ushbu ikki tomonlama asosni intizomiy javobgarlikning boshqalardan farqlovchi belgisi sifatida ko‘rsatadi. Bir tomondan, advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi davlat qonunchiligi intizomiy ishni yuritish tartibi, javobgarlik doirasi va vakolatli organlarni belgilaydi. Ikkinchi tomondan, advokatura sohasida yuqori turuvchi organ tomonidan qabul qilingan kasb-etika qoidalari advokatning kasbiy xulq-atvori mezonlarini aniqlaydi va ushbu mezonlardan og‘ishni intizomiy ishni boshlash uchun asos sifatida belgilaydi. Kasb etika qoidalarining intizomiy javobgarlik tizimida tutgan o‘rni shundaki, ular davlat tomonidan emas, balki muayyan hamjamiyat tomonidan ishlab chiqiladi

⁶ https://www.americanbar.org/groups/professional_responsibility/

⁷Zaborovskiy V.V. Ukraina va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi bo‘yicha advokatning intizomiy javobgarligi tushunchasi va turlari // Omsk universiteti Vestniki. Huquq seriyasi. – 2014. – №4(41). – 174-175-b.

va qo'llaniladi. Bu esa intizomiy javobgarlikni o'zini-o'zi boshqarish tamoyiliga asoslangan noyob mexanizmga aylantiradi. Aynan shu xususiyat advokaturaning davlatdan mustaqil institut sifatidagi tabiatini namoyon qiladi: ya'ni advokat nafaqat qonun oldida, balki o'z kasbiy hamjamiyati oldida ham javob beradi. Ye.O. Busurina talqini bilan aytganda, intizomiy javobgarlik ana shu ikkita — davlat-huquqiy va korporativ-normativlik xususiyati tufayli advokatning barcha javobgarlik turlari orasida eng o'ziga xosidir².

Yuqorida keltirganimiz Zabarovskiy tomonidan advokatlarning intizomiy javobgarligi tushunchasiga berilgan ta'rif mohiyatan to'g'ri bo'lsa-da, uni O'zbekiston sharoitida yanada aniqlashtirish zarur. Zotan, O'zbekiston qonunchiligi advokatning intizomiy javobgarligini faqat advokatlik faoliyati doirasidagina emas, balki mehnat intizomini buzganligi uchun ham (advokatlik tuzilmasida xodim sifatida) ko'zda tutadi. Shu jihatdan olib qaralganda S.J.Miraliyeva tomonidan o'z disseratsiya ishida ilgari surilgan ta'rif e'tiborga loyiq: "Advokatning intizomiy qilmishi - advokat uchun ma'lum bir huquqiy oqibat keltirib chiqaradigan, uning huquqlariga bevosita ta'sir o'tkazadigan, ma'lum darajada cheklaydigan, intizomiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladigan qonunchilika xilof harakatlari yoki harakatsizligi hamda advokatning kasbiy burch va vazifalarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligidir"⁸.

Mamlakatimizda esa advokatlarning intizomiy javobgarligi masalasi, yuqorida ham bir necha bor ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Advokatlari palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risida nizom, O'zbekiston Respublikasi Advokatlari palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi to'g'risida nizom doirasida tartibga solinadi. "Advokatura to'g'risida"gi qonunda intizomiy javobgarlik tushunchasiga alohida ta'rif keltirilmagan, qonunning 14-moddasida advokat tomonidan advokatura to'g'risidagi qonunchilik talablari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilganligi unga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilishiga sabab bo'lishi aytib o'tilgan, xolos. 2025-yilning 7-iyul sanasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Advokatlari palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risida nizomda advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish tushunchasiga alohida to'xtab o'tilgan. E'tiborli jihati shundaki, mazkur nizomdan avval boshqa hech bir qonunchilik hujjatida ushbu tushuncha alohida ta'riflanmagan edi. Tegishli nizomning 1-bob, 1-bandida intizomiy ish yuritish - advokat tomonidan advokatura to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodining buzilishi O'zbekiston Respublikasi Advokatlari palatasining hududiy boshqarmasi (bundan buyon matnda hududiy boshqarma deb yuritiladi) yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari (bundan buyon matnda adliya organi deb yuritiladi) tomonidan aniqlanganligi, advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlar, sudning advokatga nisbatan chiqargan xususiy ajrimi bo'yicha malaka komissiyasi tomonidan o'tkaziladigan o'rganish ekanligi qayd qilingan.

Advokatning intizomiy javobgarligi boshqa yuridik javobgarlik turlaridan bir qator jihatlari bilan farqlanadi. Birinchidan, bu javobgarlik alohida hamjamiyat - malaka

⁸Miraliyeva S.J. Advokatning intizomiy javobgarligi: milliy va xorijiy tajriba. Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent: TDYU, 2025. – 63-b.

komissiyalari va Oliy Malaka komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Ikkinchidan, jazo choralari jinoyat yoki fuqarolik huquqidagi sanksiyalardan tubdan farqlanadi: ular asosan professional faoliyat huquqini cheklashga qaratilgan bo'ladi. Uchinchidan, bu javobgarlikda advokat nafaqat fuqarolar va tashkilotlar oldida, balki advokatlik hamjamiyati, kasb etikasi va qonunchilik oldida ham javob beradi.

AQSh Advokatlar birlashmasi (American Bar Association) ning "Model Rules for Lawyer Disciplinary Enforcement" hujjatida ta'kidlanganidek, "intizomiy ishlar na fuqarolik, na jinoyat ishidir; ular o'ziga xos turdir". Bu ta'rif advokatning intizomiy javobgarligining huquqiy tabiatini eng lo'nda va sodda shaklda ifodalaydi.

Advokatning intizomiy javobgarligini tartibga solishning muhimligini quyidagi uchta asosiy jihat bilan belgilash mumkin: birinchi jihat – fuqarolar manfaatini himoya qilish. Advokatga yuridik yordam so'rab kelgan shaxs o'zining eng muhim huquqiy masalalarini, sirlari va moliyaviy mablag'larini advokatga ishonib topshiradi. Bu ishonch buzilsa, uning oqibatida nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyatda advokatlikka bo'lgan ishonch zaiflashadi. Shu sababli S.Qodiraliyev yozganidek, "bitta advokatning kasbiy xatosi ko'pincha alohida ish doirasidan chiqib, butun hamjamiyat haqida salbiy tasavvur uyg'otadi: "advokatlar ishonchni oqlamaydi" degan stereotip kuchayadi"⁹.

Ikkinchi jihat – kasb etikasini saqlash va unga og'ishmay amal qilish. Advokatlik kasbi tarixan jamiyatning eng nufuzli kasblaridan biri hisoblanib, uning nufuzi nafaqat bilim va tajribaga, balki axloqiy yuksak standartlarga ham asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining 2013-yil 27-sentyabr sanasida bo'lib o'tgan II Konferensiyasida tasdiqlangan Advokatning kasb etikasi qoidalarida bu tamoyil «Advokatning kasbiy nufuzi uning o'ziga nisbatan mas'uliyatli munosabati bilan shakllanadi va bu munosabat o'z o'rnida jamiyatning advokatga bo'lgan munosabatini belgilaydi» deb ta'kidlangan.¹⁰

Uchinchi jihat – huquq tizimining adolatliligi. Advokat – bu sud jarayonida ishtirokchi tomon sifatida sudni to'g'ri yo'naltirishga mas'ul bo'lgan shaxs. Agar advokatning harakatlari professionalizm va etika standartlariga zid bo'lsa, bu nafaqat uning mijoziga zarar yetkazadi, balki butun sud jarayonining adolatliligiga soya soladi. Shu sababli ECHR (Yevropa Inson Huquqlari Sudi) ham bir qator qarorlarida advokatlarning kasbiy javobgarlik tizimini sifatli yuridik yordamni ta'minlashning zarur sharti sifatida e'tirof etgan. M.Sheverdin ta'kidlaganidek, "advokatlik etikasini buzgan advokatlar uchun intizomiy javobgarlik muhim me'yoriy mezon bo'lib, etikaga rioya qilmaslik intizomiy javobgarlikka olib keladigan asosiy sabablar sirasiga kiradi".¹¹

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobida advokatura institutiga doir konstitutsiyaviy asoslar belgilangan. Unga ko'ra, advokatura jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun faoliyat yuritishi, qonuniylik, mustaqillik hamda o'zini o'zi boshqarish advokatura faoliyatining asosiy prinsiplari ekanligi mustahkamlab

⁹Qodiraliyev S. Advokatlarning intizomiy javobgarligiga oid yangi qoidalar tahlili // Jamiyatning innovatsion rivojlanishi: ilm-fan, texnologiyalar va barqaror kelajak. InScience. – 47-b.

¹¹Sheverdin M. Advokatning intizomiy javobgarligi kasb etikasi normalari buzilishi aspektida. III Sharqiy Ukraina Yuristlar assotsiatsiyasining yuridik forumi. – Xarkov, 2013.

qo'yilgan. Aynan ushbu konstitutsiyaviy normalar intizomiy javobgarlik institutining huquqiy poydevorini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasi 3-qismida advokatlarning intizomiy javobgarligiga doir asosiy normalar belgilangan. Ushbu normaga muvofiq, advokatura to'g'risidagi qonunchilik talablarini, Advokatning kasb etikasi qoidalarini, advokatlik sirini va advokat qasamyodini buzish intizomiy javobgarlikka olib keladi. 2008-yil 31-dekabrda qabul qilingan "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-198-sonli Qonuni esa advokatlik institutini takomillashtirish doirasida advokat huquqlari va kafolatlarini yanada mustahkamladi hamda Ma'muriy javobgarlik kodeksiga advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 197¹-modda kiritildi.

Xulosa o'laroq aytishimiz mumkinki, advokatlarning intizomiy javobgarligi – bu jinoiy, fuqarolik va ma'muriy munosabatlaridan farq qiluvchi, advokat uchun ma'lum bir huquqiy oqibat keltirib chiqaradigan, intizomiy intizomiy ish qo'zg'atish uchun asos bo'ladigan qonunchilikka xilof harakatlari yoki harakatsizlikning advokat tomonidan sodir etilishidir. Intizomiy javobgarlik – bu murakkab va ko'p qirrali hodisa sanalib, advokatura institutining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun muhim va zaruriy shart hisoblanadi, negaki advokatlarning intizomiy javobgarligi faqatgina jazolash vositasi emas, balki kasbiy standartlarni ushlab turuvchi, ijtimoiy ishonchni mustahkamlovchi va fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi mexanizm sifatida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 14-bob (Advokatura to'g'risidagi normalar).
2. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni, 14-modda 3-qism.
3. "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-198-sonli Qonuni, 2008-yil 31-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risida nizom, 2025-yil 7-iyul.
5. Advokatning kasb etikasi qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi II Konferensiyasi, 2013-yil 27-sentabr.
6. Jenina M.A. Advokatning intizomiy javobgarligining nazariy va amaliy muammolari // Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya referati. — Moskva, 2009. — 9-b.
7. Busurina Ye.O. Дисциплинарная ответственность адвоката в правозащитной деятельности: Диссертация канд. юрид. наук. — Москва, 2013.
8. Zaborovskiy V.V. Ukraina va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi bo'yicha advokatning intizomiy javobgarligi tushunchasi va turlari // Omsk universiteti Vestniki. Huquq seriyasi. — 2014. — №4(41). — 174-175-b.
9. Levchenko A.A., Kalinin S.V. Zarubejniy opit podgotovki sotrudnikov politsii k obespecheniyu lichnoy bezopasnosti // Mir nauki, kulturi, obrazovaniya. — 2021. — №1(86). — S. 62-63.
10. Avliyaqulov S.X. Disciplinary liability of employees of the internal affairs bodies in the Republic of Uzbekistan // Legal World. — Toshkent: O'zbekiston IIV Akademiyasi. — URL: <http://huquqiyolam.akadmvd.uz>

11. Miraliyeva S.J. Advokatning intizomiy javobgarligi: milliy va xorijiy tajriba. Magistrlik dissertatsiyasi. — Toshkent: TDYU, 2025.
12. Qodiraliyev S. Advokatlarning intizomiy javobgarligiga oid yangi qoidalar tahlili // Jamiyatning innovatsion rivojlanishi: ilm-fan, texnologiyalar va barqaror kelajak. InScience. — 47-b.
13. Sheverdin M. Advokatning intizomiy javobgarligi kasb etikasi normalari buzilishi aspektida // III Sharqiy Ukraina Yuristlar assotsiatsiyasining yuridik forumi. — Xarkov, 2013.
14. American Bar Association. Model Rules for Lawyer Disciplinary Enforcement. — URL: https://www.americanbar.org/groups/professional_responsibility/
15. Bar Association Act (Advokatlar palatasi to'g'risidagi Qonun). Estoniya parlamenti (Riigikogu), 2001-yil 21-mart.
16. Учреждение судебных установлений 1864 г., ст. 368. — URL: <http://constitution.garant.ru/history/act1600-1918/3450/>

